NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ASQAROVA MANZURA BAXTIYOR QIZI

SALOHIDDIN TOSHKANDIY "TEMURNOMA" ASARINING LINGVOMADANIY TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan - 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ASQAROVA MANZURA BAXTIYOR QIZI

SALOHIDDIN TOSHKANDIY "TEMURNOMA" ASARINING LINGVOMADANIY TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/Fil2809 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abduraxmanov Shavkatjon Ashurovich** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Iskandarova Sharifa Madaliyevna** filologiya fanlari doktori, professor
	Madrahimov Ilhomjon Sobirovich filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "_____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.Y.Sodikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d. (DSc), professor

I.O'.Darvishov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.I.Karimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asr so'nggi choragidan boshlab neolingvistik ta'limotlar asosida tilni antroposentrik nuqtayi nazardan shaxsning nutqiy faoliyati, ijtimoiy holati, ruhiyati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog'liq ravishda o'rganishga, tilning inson nutqiy faoliyati jarayonida kuzatiluvchi funksional imkoniyatlarini tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Tilga antroposentrik nuqtayi nazardan qarash natijasida tilning shaxs omili bilan chambarchas bog'liqligi, ayni paytda inson lisoniy olami markaziy tushuncha sifatida baholanishi antroposentrik tilshunoslikning rivoji jadallashib, olamning lisoniy manzarasi, milliy-ma'naviy o'ziga xoslik, kummulyativlik, appelyativlik funksiyalarini ifoda etish bilan uzviy aloqada uning lingvokulturologik xususiyatlarini aks ettiruvchi paradigmaning asosiy tadqiq obyektlaridan biriga aylanib bormoqda.

Dunyo tilshunosligida bugingi kunda har bir millat tilini uning madaniyati bilan uzviylikda o'rganish millat va xalqlarning tarixi, boy madaniy merosi, o'zaro farqli va mushtarak jihatlarini ilmiy jihatdan aniqlash, hamkorlik tendensiyalarini rivojlantirish, shaxs ongida olamning lisoniy manzarasi, lingvokognitiv dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan ishlarning salmog'ini oshirmoqda. Tilning aloqa quroli, ma'lum bir xalq, etnosning ajralmas qismi ekanligi, avloddan avlodga axborot, bilim tashishi bilan birgalikda milliy va madaniy qadriyatlarni o'zida mujjasam etishi borasida keng ko'lamli ishlar maydonga kelmoqda.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida ham tilni antroposentrik tadqiq qilishga bag'ishlangan qator ishlar yuzaga kelib, bu borada, ayniqsa, xalqimizning milliy madaniyatini aks ettiruvchi badiiy, tarixiy, tarixiy-badiiy asarlarning lingvomadaniy tahliliga doir tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'- e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash[1], Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ulug' alloma va mutafakkirlarimizning ko'plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni saqlash, o'rganish va kelajak avlodga bezavol yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish[2] kabi muhim ahamiyatga ega vazifalarning bajarilishi borasidagi ilmiy-amaliy ishlardan biri sifatida ushbu tadqiqot ishi ham dolzarb ekanligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084 Farmoni. Manbaa: https://lex.uz/docs/-5058351(Murojaat etilgan sana: 09.09.2022).

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 10.02.2022 yildagi PQ-126-son qarori. Manbaa: https://lex.uz/uz/docs/-5854226 (Murojaat etilgan sana: 09.09.2022).

tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-307-son “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-126-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, manaviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida hozirgi kunga qadar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida e’lon qilingan lingvokulturologik tadqiqotlarga oid ishlarning soni 4457 mingdan oshadi[3]. Ulardan 1514 tasi muayyan asarlarning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan. Dastlab lingvokulturologiyaning nazariy asoslari g‘arb tilshunoslarining qarashlarida aks etdi. Jumladan,Vilgelm fon Gumboldt, F.Boas, E.Sepir, B.Uorf, keyinchalik rus olimlari F.I.Buslayev, A.N.Afanasyev, A.A.Potebnya, V.N.Teliya, Y.S.Stepanov, V.A.Maslova, M.L.Kovshova, V.V.Krasnix, I.V.Zikova, D.B.Gudkov, I.V.Zaxarenko, S.V.Kabakova[4] kabi tilshunoslar bu sohaning muayyan darajada rivojlanishiga hissa qo‘shdilar. Yurtimizda ham antroposentrik tilshunoslikning sohalari qatori lingvokulturologik tadqiqotlarga qiziqish ortib bormoqda[5]. O‘zbek

---

[3] https://www.dissercat.com (2023-yil dekabr ma’lumoti)

[4] Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию: Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1984. – 39 с; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.; Воробьёв В.В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М.: РУДН, 2008. – С. 36.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. 4-е изд. – Москва: Академия, 2010. 208 с. – С. 9.; Иванова С.В.Лингвокультурологический аспект исследования языковых еддиниц. автореф. дис. доктор филологических наук. – Уфа,2003. – С.364

[5] Шарипова А. А.Стилистик синонимлар таржимасининг лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари материаллари асосида) филология фан. фалсафа докт. диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.; Бахронова Д. Антропозооморфизмларнинг семантик ва лингвокультурологик хусусиятлари (ўзбек ва испан тиллари материалида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.; Тухтаходжаева Н. Бадиий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 42 б.; Насиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 96 б.; Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг когнитив, лингвомаданий, коммуникатив, прагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Қарши, 2019.; Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.; Йўлдошев У. Р.Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари филология фанлари докторлик диссер.автореф.– Тошкент, 2017.–50б.; Рахматуллаева З. Ҳаракат тарзи шаклларининг лингвокультурологик ва социопрагматик хусусияти (ўзбек тили материали асосида) филология фан. фалсафа доктори диссер. автореф. – Қарши, 2018.;

tilshunosligida tarixiy-badiiy asarlarni lingvistik, leksik-semantik, grammatik, uslubiy, qiyosiy-tekstologik jihatdan tahlil qilingan ishlar mavjud[6]. Tadqiqotimiz obyekti bo'lmish "Temurnoma" yuzasidan adabiyotshunoslik, manbashunoslik va folklorshunos-likda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan[7]. Biroq, mazkur ishlarda syujet va obraz masalasi, asarning variantlari, matni, antroponimiyasi xususiyatlari yoritilgan bo'lsa-da "Temurnoma"ning lingvomadaniy tadqiqiga bag'ishlangan mukammal ish ko'zga tashlanmaydi. Shunday ekan, "Temurnoma" asarining lingvomadaniy tadqiqi borasidagi monografik aspektda bajarilgan ishlarning mavjud emasligi bizning tadqiqot ishimiz uchun asos bo'la oladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "O'zbek tilining sistem va antroposentrik tadqiqi" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida qo'llangan lisoniy birliklarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbek tilshunosligida tarixiy-badiiy asarlarning lingvistik jihatlari yoritilgan ishlarni umumlashtirish va lingvomadaniy tahlil qilingan tadqiqotlarni atroflicha yoritish;

"Temurnoma" asaridagi milliy, madaniy o'ziga xoslikni ifodalovchi lingvokulturemalarni izohlash, tasniflash va asarning o'zga variantlari doirasida taqqoslash;

"Temurnoma"da qo'llangan muqobilsiz leksik qatlam, milliy realiyalarni lingvomadaniy aspektda tahlil qilish;

asardagi o'xshatishlar, mifologiyalashtirilgan til birliklarining qo'llanish maydonini belgilash, ularning lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish;

"Temurnoma" asarida pretsedent birliklarning lisoniy va genderolingvistik xususiyatlarini tasnif qilish;

asar matnida qo'llangan nutqiy muomala va nutqiy etiket munosabatlarga xos xususiyatlarni til va madaniyat uyg'unligida yoritish, ularning tahilida subyektiv va obyektiv omillar ahamiyatini ko'rsatib berish;

Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари филология фан. фалсафа доктори диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б

[6] Холманова З. «Шайбонийхон» достони лексикаси (Пўлкан шоир варианти асосида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Абдуллаева М.Д. Тарихий насрий асарлар бадииятининг қиёсий таҳлили ("Бобурнома" ва "Шажараи турк"мисолида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Тўраева Б.Б. Тарихий романларда бадиий замон муаммоси (О.Ёқубов ва П.Қодиров романлари мисолида): филология фан. фалсафа докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Ўразбоев Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси: филология фанлари докт (DSc)... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Абдувалиева Д.А. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: филология фан. фалсафа докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Ҳамраева М. Тарихий ҳақиқат ва бадиий талқин (Насрий асарларда Амир Темур образи): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010; Дадабоев О. Ғарб ва Шарқ адабий контекстида Амир Темур шахси талқини: филология фан. фалсафа докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Пардаева И.М. Алишер Навоий тарихий асарлари бадиияти: филология фан. фалсафа докт... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018;

[7] N. Muminova "Temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari" filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi // diss.natlib.uz; Sayitqulov I. "O'zbek xalq tarixiy nasrida epik syujet va obraz evolyutsiyasi ("Temurnoma" misolida) "filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi // diss.natlib.uz; Arslonov A. "Temurnoma"larning qo'lyozma manbalari va qiyosiy-tekstologik tadqiqi" filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi//diss.natlib.uz;

"Temurnoma" matnida qo'llangan antroponimik birliklarining semantik xususiyatlarini lingvomadaniy tahlil asosida tasniflash ishning asosiy vazifalarini tashkil qiladi.

Tadqiqot obyekti sifatida Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asaridagi lisoniy birliklar tanlandi.

Tadqiqot predmeti "Temurnoma" asarida qo'llangan leksik hamda lingvomadaniy birliklarning lingvomadaniy xususiyatlaridir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, semantik, etnolingvistik, lingvomadaniy va komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Temurnoma" asaridagi lisoniy birliklarning lingvokulturologik birlik sifatidagi mavqeyi, lingvomadaniy birliklar semantikasi, shuningdek, asardagi milliy-madaniy xoslanishni ifodalovchi lisoniy birliklarning tasnifi, pragmatik, lingvokulturologik, genderolingvistik omillari asoslangan;

"Temurnoma" matnida qo'llangan muqobilsiz leksika – milliy realiyalar, xoslangan birliklardagi milliy-madaniy belgilarning assotsiativ, etnolisoniy va mental belgi-xususiyatlari aniqlangan;

milliy-madaniy bo'yoqqa ega o'xshatishlar, konnotativ ma'no ko'rsatkichlari, mifiklashtirilgan til birliklari tasniflanib, konnotativlik va o'xshatish etalonlarining lingvomadaniy kodlari tarixiy-ijtimoiy, madaniy belgilari lisoniy qonuniyatlar orqali voqelanganligi isbotlangan;

asarda antroponimik birliklar, nutqiy muomala va nutqiy etiketning gender munosabatlari, pretsedent nomlarning lingvistik, lingvomadaniy xususiyatlari, hududiy, etnik, tarixiy, mental jihatdan lingvomadaniy aspekt orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Temurnoma" asarining lingvokulturologik xususiyatlari bilan bog'liq to'plangan manbalar, qo'yilgan masalalarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar tilshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, oliy ta'limda o'qitiladigan "Lingvokulturologiya", "Matn tilshunosligi", "Madaniyat-shunoslik", "Folklorshunoslik", "Pragmalingvistika", "Kognitiv tilshunoslik", "Semasiologiya", "Leksikografiya" kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

asardagi lingvokulturologik birliklarning tahlillaridan izohli lug'atlar tayyorlashda amaliy jihatdan foydalanish mumkinligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, tilshunoslikda qo'llanilayotgan tadqiq usullari asosida tadqiqot maqsadiga mos ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan, so'nggi yillarda chop etilayotgan ilmiy adabiyotlardan misollar esa Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asaridan olinganligi, fikrlar tavsiflash, tasniflash, tahliliy va qiyosiy metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o'zbek tilshunosligida xalq madaniyatini uning tili

vositasida o'rganishning nazariy asoslarini o'rgangan holda tarixiy asarlar matnlari, xususan, Salohiddin Toshkandiy "Temurnoma" asari bilan bog'liq tadqiqot ishlarini yaratishda, til birliklarining lingvomadaniy tahlilini amalga oshirishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Semasiologiya" va "Lingvokulturologiya" fanlariga oid darslik va qo'llanmalarni yaratishda, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalariga semasiologiya, leksikologiya, til va madaniyat bilan bog'liq maxsus kurs hamda seminarlar tashkil etishda manba sifatida, shuningdek, tarixiy asarlar matnlari asosida yaratilgan izohli va sohaviy lug'atlarni to'ldirish, mukammallashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Salohiddin Toshkandiy "Temurnoma" asarining lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

"Temurnoma" asaridagi lisoniy birliklarning lingvokulturologik birlik sifatidagi mavqeyi, lingvomadaniy birliklar semantikasi, shuningdek, asardagi milliy-madaniy xoslanishni ifodalovchi lisoniy birliklarning tasnifi, pragmatik, lingvokulturologik, genderolingvistik omillari asoslangan o'rinlaridan Davlat ilmiy texnik dasturlari doirasidagi 2020-2022-yillarga mo'ljallangan IL-21091433. "O'zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasi"ni yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)" bo'yicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan. (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 20-iyundagi №04/1-1601-son ma'lumot-nomasi). Natijada elektron platforma lingvomadaniy tadqiqotlarga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

"Temurnoma" matnida qo'llangan muqobilsiz leksika – milliy realiyalar, xoslangan birliklardagi milliy-madaniy belgilarning assotsiativ, etnolisoniy va mental belgi-xususiyatlari aniqlangan to'xtam va xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2023-yillarga mo'ljallangan IL-21091506 – "O'zbek ismlarining izohli imlo lug'ati va mobil ilovasini yaratish" bo'yicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan. (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 20-iyundagi №04/1-1600-son ma'lumotnomasi). Natijada ilovada qo'llangan antroponimik birliklarning semantik xususiyatiga doir izohlar hamda talqinlar mukammallashgan;

milliy-madaniy bo'yoqqa ega o'xshatishlar, konnotativ ma'no ko'rsatkichlari, mifiklashtirilgan til birliklari tasniflanib, konnotativlik va o'xshatish etalonlarining lingvomadaniy kodlari tarixiy-ijtimoiy, madaniy belgilari lisoniy qonuniyatlar asosida voqeylanganligi isbotlangan fikrlar "Antroposentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" nomli elektron qo'llanmaga singdirilgan (Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi 2022-yil 22-maydagi №DGU 17006-sonli guvohnomasi). Natijada lug'atni o'quv hamda ommabop holatda ta'lim va tadqiqot jarayonida qo'llash imkoniyati yuzaga kelgan;

asarda antroponimik birliklar, nutqiy muomala va nutqiy etiketning gender munosabatlari, pretsedent nomlarning lingvistik, lingvomadaniy xususiyatlari, hududiy, etnik, tarixiy, mental jihatdan lingvomadaniy aspekt orqali dalillangan xulosalardan 2023-2024-yillarda O'zMTRK "O'zbekiston tarixi"

teleradiokanalining "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan. (O'zbekiston teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 13-iyundagi 06-28-641-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv va eshittirishlarning ilmiy saviyasi oshib, tinglovchi va tomoshabinlar tarixiy asarlar lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlariga doir bilim va tasavvurlari boyitilgan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 8 ta respublika, 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta 6 tilda monografiya, 1 ta DGU mualliflik guvohnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (3 ta respublika hamda 4 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Antroposentrik paradigmada lingvokulturologiyaning o'rni, rivojlanishi va istiqbollari"** deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan iborat bo'lib, uning birinchi paragrafida *"Antroposentrik paradigma va uning taraqqiyoti"* tahlil qilinadi. Til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o'rganish, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda asosan, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshirilgan so'nggi yangiliklarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Til har doim ham muayyan etnik guruhning umumiy xususiyatini ifoda etib, madaniyat va inson tushunchalari bilan yonma-yon turganligini V.fon Gumboldt, E.Benvenist, G.Shteyntal, A.Potebnyaning asarlarida uchratish mumkin. Antroposentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya'ni o'z egasidan ayro holda tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandi. Xususan, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Y.N.Stepanov, I.R.Galperin, N.Y.Karaulov, A.A.Leontev, J.Lakoff, T.A.Van Deyk, A.Vejbitskaya, E.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, T.M.Dridze, K.F.Sedov[8] kabi

---

[8] *Chomsky N.* Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957. (Переиздание: *Chomsky N.* Syntactic Structures. – De Gruyter Mouton, 2002. – ISBN 3-11-017279-8); Cheyf U «Idiomaticity as an Anomaly in the Chomskyan Paradigm». Foundations of Language 4.109-127. 1968. Чейф У. Л. Значение и структура языка. Пер. с англ. Г. С. Щура, послесл. С. Д. Кацнельсона. – (Языковеды мира) – М.: Прогресс, 1975. (Переиздания: М.: Едиториал УРСС, 2003; 2009.); Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и

tilshunoslarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan. Antroposentrik tilshunoslikning yo'nalishlaridan sanalgan lingvokulturologiya xususida V.V.Vorobyovning tavsiflari kuzatiladi, shuningdek, olimning ishlarida lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro ta'siri hamda aloqasini o'rganuvchi soha ekanligi haqidagi nazariy xulosalar keltiriladi[9]. Lingvokulturo-logiya xususida S.A.Kosharnaya mavjud fikrlarni yanada aniqlashtirib, maxsus-lashtirilgan holda xalq moddiy va ma'naviy madaniyati elementlarining milliy til orqali ifodalanishi va qayta anglanishini o'rganuvchi fan degan o'rinli ta'rifni[10] asoslab beradi. N.F.Alefirenko yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, zamonaviy lingvokulturologiya o'rganadigan muammolarni sanab o'tadi[11].

O'zbek tilshunos olimlaridan professor N.Mahmudov, S.Mo'minov, D.Xudoyberganova, I.A.Azimova, M.X.Hakimov, Sh.Safarov, D.Lutfullayeva va boshqalarning tadqiqot ishlarida antroposentrik tilshunoslik

мышление. – М.: Наука, 198. 8. – 242 с.; Л. В. Щерба Языковая система и речевая деятельность. издательство «наука» ленинградское отделение ленинград, 1974.; Степанов, Ю. С. Методы и принципы современной лингвистики. – Москва: Наука, 1975. – 351 с.; Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследо-вания.https://www.livelib.ru/book/1000243824-tekst-kak-obekt-lingvisticheskogo-issledovaniya-i-r-galperin.; Караýлов Н. Ю́ Русский язык и языковая личность (1987; 4-е изд. 2004); Жинкин Н. И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – 157 с.; Леонтьев А.А. Возникновение и первоначальное развитие языка. – М.: Изд-во Акад. наук СССР, 1963.; *Лакофф Д., Джонсон М.* Метафоры, которыми мы живем. – М.: 2004.; Teun Van Dijk. *Ideology: A Multidisciplinary Approach.* London: Sage, 1998.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. / Перевод с английского, ответственный редактор М. А. Кронгауз, вступительная статья Е. В. Падучевой – М.: Русские словари, 1996. – 412 с. ISBN 5-89216-002-5.; Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов, – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 288 с. ISBN 5-7859-0189-7.; Вежбицкая А. Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики, – М., 2001. ISBN 5-7859-0190-0.; Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / РАН ИЯ. – М.: Языки славянской культуры, 2004.; *Rosh E.* Basic Objets in Natural Categories // Cognitive Psychology. 1976.; Rosh E. On the internal structure of perceptual and semantic categories // T. E. Moore (ed.), Cognitive Development and the Acquisition of Language. N. Y.: Academic Press, 1973; Natural categories // Cognitive Psychology. 1973, 4, 328. – 350; Linguistic relativity // A. Silverstein (ed.), Human Communication: Theoretical Perspectives. Halsted, 1974.; Cognitive representations of semantic categories // Journal of Experimental Psychology: General. 1975, 104, 192-233.; Cognitive reference points // Cognitive Psychology. 1975, 1, 532-547.; Family resemblances: Studies in the internal structure of categories // Cognitive Psychology. 1975, 1, 573-605 (with C. B. Mervis).; *Белянин В. П.* Психолингвистические аспекты художественного текста. – Москва: Изд-во Московского ун-та, 1988. – 123 с. – ISBN 5-211-00166-4:75 к.; *Демьянков В.З.* Процедура преобразования словосочетаний естественного языка на язык числовых индексов (применительно к построению информационно-поисковых систем экономических показателей). – Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М.: МГУ, филологический факультет, 1978. – 231 с. *Демьянков В.З. «Субъект», «тема», «топик» в американской лингвистике последних лет (Обзор 2)* // Изв. АН СССР. Сер. лит. и яз. 1979. Т.38. № 4. – С. 368-380. *Демьянков В.З. Загадки диалога и культуры понимания* // Текст в коммуникации. М.: Институт языкознания АН СССР, 1991. – С. 109-116. *Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода* // Вопросы языкознания, 1994. № 4. – С. 17–33.; Маслова, В. А. Принцип противопоставления и его реализация в семантике языка: (на материале лекс. единиц): дис. ... канд. филол. наук / В. А. Маслова. – Ош, 1981. – 215 с., Маслова В.А. Онтологические и психолингвистические аспекты экспрессивности текста: дис. ... д-ра филологических наук: 10.02.19 / В.А. Маслова. – Минск, 1992. – 425 л., Маслова В. А. Русский характер сквозь призму языка и текста: лингвокультурологический анализ: [монография] / В. А. Маслова. – Saarbrucken: LAP LAMBERT Academic Publishing, 2011. – 123 с. Маслова В.А. Когнитивный и коммуника-тивный аспекты художественного текста: монография / В.А. Маслова. – Витебск: ВГУ имени П.М. Машерова, 2014. – 104 с. Maslova V. Linguistic-Culture: a Russian Picture of the World / V. Maslova; translated by Alfred Santos; Russian Academic Translations. – Columbia, SC: [s. n.], 2018. – [236 p.]

[9] Воробьёв В.В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М.: РУДН, 2008. – С. 36.
[10] Кошарная С.А. Миф и язык: Опыт лингвокультурологической реконструкции русской мифологической картины мира. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2002. – С. 24.
[11] Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: учебное пособие. 5-е изд. – М.: ФЛИНТА: Наука, 2016. 288 с. – Б. 29.

xususidagi dastlabki qarashlar aks etgan.[12] Antroposentrik tadqiqotlarning oʻzbek tilshunosligidagi asosiy xususiyatlaridan biri anʼanaviy va sistem-struktur tilshunoslik yutuqlariga tayangan holda yangi bosqichga koʻtarila olganidir. Shu jihatdan oʻzbek tilshunosligida antroposentrik tadqiqotlarning salmogʻi ortib bormoqda. Bobning ikkinchi paragrafi *"Jahon va oʻzbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar"* deb nomlangan boʻlib, unda lingvokulturologiyaning dunyo tilshunosligi va oʻzbek tilshunosligida paydo boʻlish, rivojlanishi masalalari yoritilgan. Jahon tilshunosligida lingvokulturologiyaning negizlari Vilgelm fon Gumboldtga[13] borib taqaladi. U millatning ruhi, oʻzligi, dunyoqarashi tilda aks etishini taʼkidlagan[14]. Tilni madaniyatning bevosita aksi sifatida tushunish amerikalik relyativistlar F.Boas, E.Sepir, B.Uorflar tomonidan yanada rivojlantirildi. Ularning fikricha, "til mutlaq va hamma narsani qamrab oluvchi kuchga ega. U tafakkur, xulq-atvor meʼyorlarini aks ettiradi, mantiqiy kategoriyalar va yaxlit tushunchalarni shakllantirishga yoʻnaltiradi, insonning ijtimoiy va individual hayotining barcha jabhalariga kirib boradi, shaxsning madaniyati shakllarini belgilaydi, har qadamda odamga hamroh boʻlishi"[15] haqidagi nazariy gʻoyalarni oʻz asarlarida qayd etishgan. Yevropa tilshunoslarining fan xususida qarashlari koʻp boʻlsa-da, "Lingvokulturologiya" atamasi rus olimlari V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabida olib borilgan Y.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyov, V.Shakleina, V.A.Maslova[16] kabi tadqiqotlarchilarning ishlari bilan bogʻliq ravishda yuzaga keldi. XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yoʻnalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya tilda va diskursda oʻz aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini oʻrganib, muayyan madaniyatning mif, afsona, urf-odat, anʼana, udum, taomil, ramzlarini tadqiq etishi bilan milliylik kasb etadi.

Dissertatsiya ishida rus tilshunoslarining lingvokulturologiya sohasida olib borgan tadqiqot ishlariga alohida toʻxtalib oʻtilgan. Jumladan, S.V.Ivanova "Til birliklari tadqiqining lingvokulturologik aspekti" nomli doktorlik dissertatsiyasida madaniyat tushunchasi, til va madaniyatning oʻzaro taʼsiri, til va tafakkur, konseptosfera va dunyoning lisoniy manzarasi, lingvokulturologiyaning kognitiv tilshunoslik bilan bogʻliqligi, til shaxsi, lingvokulturologik tadqiqot birliklari, lingvomadaniy kod tushunchasi, madaniy komponentlarning turlari, til sathlari

---

[12] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. Рисола. – Тошкент: MUMTOZ SOʻZ, 2017. – 176 б.; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанл. док. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 236 б.; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Азимова, И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз...дис. автореф. – Тошкент, 2008.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фанлари д-ри...дис. автореф. – Тошкент, 2001.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – 74 б.; Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.

[13] Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию: Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1984. – 398 с.

[14]Ольшанский И.Г. Лингвокультурология в конце XX в: итоги, тенденции, перспективы//https://cyberleninka. ru/article/n/lingvokulturologiya-v-kontse-hh-v-itogi-tendentsii-perspektivy/viewerc.

[15] Иванова С.В.Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц. Автореф. дис. доктор филогических наук. – Уфа, 2003. – С. 364.

[16] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – 288 с.; Воробьёв В.В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М.: РУДН, 2008. – С. 36.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. 4-е изд. – Москва: Академия, 2010. 208 с. – С. 9.

birliklarining lingvokulturologik xususiyatlari, lingvistik va ekstralingvistik omillarning lingvokulturologik tahlillari xususida soʻz yuritgan.[17] Bundan tashqari oʻrganilgan manbalar ichida V.I.Txorikning "Lingvomadaniy aspektda til shaxsi" nomli doktorlik dissertatsiyasida til shaxsining falsafiy xarakteristikasi, lingvokulturologiyani falsafa orqali tushunish, til va shaxs, lingvistik tafakkurga lingvomadaniy yondashuv aspektlari xususida shunday deydi: "Til-madaniyat-millat triadasi (uchligi) oʻzaro aloqadorlikda yashaydi. Har qanday millat oʻzining madaniyatiga ega, ana shu madaniyat uning tilida aks etadi. Mazkur triada falsafiy xarakterga ega"[18]. Olim "til va madaniyat" masalasi sotsiolingvistika, etnolingvistika, qiyosiy antropologiya kabi ilmiy sohalar bilan bogʻliq boʻlsa-da, ayni paytda, lingvokulturologiya doirasida alohida oʻrganish maqsadga muvofiq boʻlishi kerakligini taʼkidlaydi. Bulardan tashqari, V.P.Sinyachkin "Rus tilida non konseptining lingvomadaniy aspekti" (2022), T.V.Evsyukova "Madaniyat lugʻati-ning lingvistik madaniy konsepsiyasi" (2002), A.I.Roxlina "Matn talqinining lingvomadaniy tadqiqi" (2005), O.G. Xoxlovskaya "Dialogik diskursda lingvo-madaniy aspekt" (2006), M.L.Jitnikova "Uy xalq dunyoqarashining asosiy tushunchasi sifatida: lingvomadaniy aspekt (2006) V.S.Samarina "Frazeologiyada gender: kognitiv-lingvomadaniy aspekt" (2010), N.N. Frolova "Rus tilida nomlarni (brendlarni) belgilashning diskursiv funksiyalari, lingvokulturologik va lingvo-pragmatik jihatlari" (2011), M.M.Hasan Somoniy "Arab tili fonida rus tilining frazeologizmlari-evfemizmlari: lingvomadaniy aspektda" (2020), F.Mitsziti "Rus tilida perifrazalarning (sotsionimlari, toponimlari, kulturonimlari) samarali tematik guruhlarining lingvokulturologik jihatlari" (xitoy tili misolida, 2020), S.S.Muxto-rova "Qozoq, rus, ingliz tillarining leksik makonidagi ekvivalentsizlik xususiyatlari" (badiiy adabiyotlar tarjima materiallari asosida, 2021), Y.V.Sainenko "Lingvokulturologik tasvirda Belgorod viloyatining oykonomiya-sining sinxron-diaxronik tahlili" (2023), O.Akila "Arab, fransuz va rus tillarida "uy" leksemasining lingvistik-madaniy tahlili" (maqollar asosida, 2023), A.V.Krivitskaya "Shaharning lingvistik va madaniy makonidagi ergonimlar (Boshqirdiston Respublikasi ichimlik muassasalari materiallari asosida, 2023) kabi nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari[19] bilan tanishib chiqildi. Shuningdek, tadqiqotda oʻzbek tilshunosligida yaratilgan lingvokulturologik tadqiqotlarning ayrimlariga atroflicha tavsif berilib, munosabat bildirilgan.

Dissertatsiyaning **"Temurnoma"da lingvokulturemalarning lingvistik tavsifi"** deb nomlangan ikkinchi bobining *"Temurnoma"da lingvokulturema-larning lingvistik tasnifi va tahlili"* nomli birinchi paragrafida "Temurnoma" asaridagi lingvokulturemalarning semantik va madaniy xususiyatlari yoritiladi. Maʼlumki, lingvokulturemalarga madaniyatning muayyan qismini aks ettiruvchi soʻzlar, frazeologik birliklar, soʻz birikmalari, gaplar, paremalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida koʻrsatilgan birliklar, mazmun planini esa oʻsha birliklarning semantikasi tashkil qiladi.

[17] Иванова С.В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц. Автореф. дис. доктор филологических наук. – Уфа, 2003. – С. 364.

[18] Тхорик В. И. Языковая личность: Лингвокультурологический аспект: автореф. дис. доктор филологи-ческих наук. – Москва, 2000. – С.30.

[19] https://www.dissercat.com

Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida ham frazeologik birliklar salmoqli o'rin egallaydi. Asarda yuzlab iboralarning jo'yali qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Tarixiy asarlar tilining frazeologik fondi xalq madaniyati va mentaliteti xususida bebaho ma'lumotlar xazinasi bo'lib, ularda xalqning afsona, urf-odat, udum, axloq to'g'risidagi tasavvurlari aks etadi. Shu bois iboralarda milliylik, ma'lum xalq qiyofasi namoyon bo'ladi. "Temurnoma"da *jondan qo'l yuvmoq, etini terisidan shilmoq, takya qilib kelmoq, hayrat barmog'in tishlamoq, jomni tomdan tashlamoq, savdo boshiga tushmoq, taajjub barmog'in tishlamoq, o'ziga kelmoq, so'zga lab ochmoq, kayfi uchmoq, duo ketmoq, tuz haqini andesha qilmoq, tuz xotirini qilmoq, so'zga solmoq, o'z holiga qo'ymoq, so'zga og'iz ochmay, jon bermoq, uddasidan chiqmoq, tavakkal yaratgan o'ziga, ko'zi qonga to'lmoq, ishi jo'n bo'lmoq, bel bog'lamoq, qo'ldan ketmoq, qo'lga tushurmoq, qo'l yig'di, qo'l urmoq, ko'zini ochmoq, bo'yin qo'ymoq, ko'ngildan chiqarmoq, jonga urmoq, xushi boshidan uchmoq, ko'ngildan ko'tarmoq* kabi iboralar qo'llangan. Asardagi frazeologik birliklar semantikasi o'ziga xos. Birgina qo'l bilan bog'liq iboralar o'ndan oshadi. *Masalan: ...agar jonlaringdin qo'l yuvgan bo'lsang, beri kel,– dedi.* (Temurnoma, 100-bet). Ma'lumki, qo'l yuvish o'z ma'nosida ham, ibora ma'nosida ham qo'llanadi. Mazkur birikma dennotativ ma'no semasiga ko'ra gigiyena uchun bajariladigan kundalik odatga nisbatan iste'molda mavjud bo'lsa, konnotativlik semasiga, ya'ni ibora ma'nosiga ko'ra, *hafsalasi pir bo'lmoq, umidini uzmoq* kabi birikmalar bilan sinonimik qatorda turadi. *Jondan qo'l yuvmoq* iborasi asarda *jondan to'ygan, jonidan umidini uzgan* iboralari bilan teng miqyosda qo'llangan.

"Temurnoma" tilida metaforik qo'llanish natijasida emotsional-ekspressivlik hosil qiluvchi so'zlar faol qo'llangan.Asarda metaforaning original namunalari uchraydi. Adib tomonidan yangi topilmalar qo'llangan. Shuning uchun ham asar matnida metafora qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qilganligi misollar bilan dalillangan.

"Temurnoma"da *teva ko'rdingmi yo'q//tuya ko'rdingmi yo'q//ishi borning tishi bor//odam odamg'a ko'p yerda o'xshay berur//sadaqa raddi balo* kabi maqollar uchraydi. Asar konteksida mazkur paremiologik birliklardan bugungi kun adabiy til muhitida *odam odamga o'xshaydi//sadaqa raddi balo//tuya ko'rdingmi yo'q* kabilari saqlangan. Teva – tuya leksemasining arxaiklashgan shakli. *Ishi borning tishi bor* maqoli ishli odamning mavqeyi xususidagi paremiologik birliklarning arxaiklashgan shakli ekanligi lingvistik jihatdan asoslangan.

1-jadval

"Temurnoma" asarida qo'llangan iboralarning iste'mol doirasi

Frazeologizm (ibora)	Arxaiklashgan ibora	Tarixiylashgan ibora (iste'moldan chiqqan)	o'z holicha saqlangan
jondan qo'l yuvmoq	"qo'l yuvmoq" // qo'l yuvib qo'ltiqqa urmoq		
qo'ldan ketmoq			Ayrilmoq, bekor qilmoq
qo'lga tushurmoq			Tutmoq
qo'l yig'di		to'xtatmoq, tugatmoq	
qo'l urmoq			Boshlamoq, tegmoq

qo'l tortmoq			olmoq, tekkizma,
hayrat barmog'in tishlamoq		Hayron bo'lmoq // lol qolmoq	
Taajjub barmog'in tishlamoq		Hayron bo'lmoq // lol qolmoq	
Ruh to'tisi tan qafasini tark etmoq		Evfemistik tarixiylashgan ibora	
Tahayyur barmog'in tishlamoq		Evfemistik tarixiylashgan ibora	
jong'a urmoq	Jonga tegmoq		

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi*"Temurnoma"da qo'llangan muqobilsiz leksik birliklarning lingvomadaniy shakllari"*ni tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettirib, mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik kabi tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi[20]. Muqobilsiz leksik qatlam milliylikning saqlanishida yetakchi til birligi bo'lishi bilan birga, o'zga xalq uchun "begona" leksik qatlam vazifasini bajaradi. Muqobilsiz lisoniy birliklar muayyan madaniy hodisa uchun o'ziga xos belgi bo'lib, ular tilning kummulyativ (til egasi tajribasini mustahkamlovchi, yig'uvchi) funksiyasi natijasidir. Unga so'zlashuvchilar ongida mavjud bo'lgan tagbilimlar xazinasi sifatida qarash mumkinligi tadqiqot ishimizda tahlil qilingan.

L.S. Barxudarov muqobilsiz leksikani bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobili bo'lmasligi va uning uch tipi mavjudligini ko'rsatadi. [21]

2-jadval

L.S.Barxudarov tasnifi

Atoqli otlar	Geografik joy nomlari, tashkilot, korxona, gazeta va h.k.
Realiya	Boshqa tilda so'zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo'lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatlarni ifodalovchi so'zlar. Masalan, moddiy va ma'naviy madaniyatdagi milliy taom nomlari, milliy libos nomlari va h.k.
Tasodifiy lakunalar	Biror bir tildagi leksik birliklarning qandaydir sabablarga ko'ra boshqa tilning leksik tarkibiga mos kelmasligi.

O.Ivanov "Muqobilsiz leksika" o'quv qo'llanmasida muqobilsiz leksikani referensial, pragmatik va alternativ kabi guruhlarga ajratib tavsiflagan. D.Voroshkevich tasnifida muqobilsiz leksika 6 turga bo'linadi[22]:

1. Uy xo'jaligi: a) kiyim-kechak; b) oyoq-kiyim; c) bino-inshootlar; e) narsa-buyumlar; f) o'lchov va pul birliklari.

2. Tabiiy dunyo realiyalari: a) geografik-fizik atamalar; b) endemiklar.

[20] Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: 2009. – 248 b.
[21]Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы обшей и частной теории перевода. –М.: Международные отношения, 1975. –240 с.
[22] Ворошкевич Д.В., Казанникова Д.П. Пособие по лингвокультурологическому анализу текста. – Москва: МПГУ, 2015. – 33 с.

3. Etno-grafik realiyalar: a) an'ana, rituallar, o'yinlar; b) mifologiya, kultlar.

4. Ommaviy-siyosiy voqeliklar.

5. Onomastik-antroponomik realiyalar.

6. Assotsiativlar kabi.

Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida uy xo'jaligi bilan bog'liq muqobilsiz leksik birliklar quyidagicha semantik guruhlarga birlashadi: *Kiyim-kechak* (3 guruhga bo'lib tadqiq etish mumkin) a) bosh kiyim nomini bildiruvchi muqobilsiz leksik birliklar: *...Xon ko'rdikim, bir turk bacha, egnida chakmon, boshida telpak. (Temurnoma, 77-bet). Ammo Nosir shum fidoiylardin o'n kishig'a yarog' va aslaha berub, boshiga salla, egniga janda kiydurub, qalandar kabi bo'lub, Mukno yig'ochin atrofida turdilar... (Temurnoma, 69-bet). b) badan uchun kiyim-kechak (ichki, ustki kiyimlar); ... Xon ko'rdikim, bir turk bacha, egnida chakmon, boshida telpak. (Temurnoma, 77-bet). Xonimcha hayron bo'lub, so'fi bila vidolashib, boshiga telfak, egniga to'n kiyub Buxoro sari yuzlandi. (Temurnoma, 112-bet)....bir eski chopon churukini kelturdi (Temurnoma, 98-bet).* c) asarda harbiy kiyimlar sifatida *sovut, dubulg'a, qalqon,* kabi jang kiyim nomlari keltirilgan.

Uy xo'jaligi ichki tasnifining ikkinchi semantik guruhi bino-inshootlardir. "Temurnoma" da adib ko'plab bino-inshootlar xususida so'zlab, Qarshi (hozirgi Qashqadaryo viloyati markazi)ni uyg'ur tilida ekanligi, "qasri baland" degan ma'noni bildirishi aytib o'tilgan: *Qarshi uyg'ur tilida, Qarshi deb qasri balandni aytur (Temurnoma, 100-bet). Ko'rdikim, xandakdin sakrab o'tub shahr qo'rg'oni-din oshib ketti (Temurnoma, 101-bet). ...Amir Temur ikkovi kecha bila xandak yoqasig'a keldilar (Temurnoma, 103-bet). Xandaq* – qadimiy va o'rta asrlarda shahar, qal'a, qo'rg'on va mudofaa istehkomlarini dushman hujumidan ehtiyot qilish maqsadida ularning tashqi devori yonidan gir aylanasiga qazilgan o'ra, chuqurlik. *Andin o'rda sarig'a bordilar (Temurnoma, 103-bet). O'rda, O'rdu* – turkiy va mo'g'ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal'a. Atama ushbu ma'noda ilk bor qadimiy O'rxun Enasoy bitigi "Irq bitig" da qayd etiladi. Qoraxoniy hukmdor saroyi yoki Koshg'ar shahri O'rdukand deb yuritilgan[23]. Bundan tashqari tadqiqot ishimizda *o'ram, chodir, xayma, xonaqoh, do'kon, chorbog', sufa(supa)* kabi leksik birliklar izohlangan.

Uy xo'jaligi ichki tasnifining uchinchi semantik guruhi bo'lgan narsa-buyumlar asarda ko'p o'rinlarda qo'llangan. Ulardan lingvomadaniy birlik sifatidagi leksemalar quyidagilardir: *...turub, yerdin bir <u>kesak</u>ni olub hojatg'a bordi. (Temurnoma,78-bet). Meni sallam bila <u>jig'am</u>ni tushurding... (Temurnoma, 79-bet). Amirni iltifot birla qo'lidin ushlab yetti darvozadin kirguzub, barchasig'a <u>qufl</u> urub, birovig'a kelturdi (Temurnoma, 80-bet). Anda rango-rang <u>palos</u>lar solingan, turli-turli <u>to'shak</u>lar solingan, anda darhol mo'm <u>sham</u>larni oltin <u>lagan</u> uzra yoqib qo'ydilar (Temurnoma, 80-bet), Sohibqiron <u>quticha</u>ni olib ko'rsa, taryoq isi kelur... (Temurnoma, 82-bet). Ziyodasini <u>huqqa</u>sig'a soldi (Temurnoma, 83-bet). ...ani bir <u>yo'mriq</u> bila bir urub o'ldurdi (Temurnoma, 85-bet). Sayyid ota ko'kraklarida bir <u>qumg'on</u> suvni olib yotib erdilar (Temurnoma, 87-bet). ...tanasig'a shizni surkab yetti kun oftob ro'yosig'a to'rt <u>qoziq</u> qoqib bog'lab, a'zosini dog'lab qo'ydilar*

---

[23] O'zME. Birinchi jild. –Toshkent, 2000-yil.

(Temurnoma, 96-bet). Bulardan tashqari asarda *sanduq, poʻta, buryo, chirogʻ, sabat(savat), kosa, piyola, dasturxon, xurjun, mesh* va boshqalar ham uchraydi.

Uy xoʻjaligi ichki tasnifining toʻrtinchi semantik guruhi oʻlchov va pul birliklari asar matnida *ming choqluq (89-bet), yetti gaz (109-bet), ikki taqsim qildi (110-bet), odamlarni qalam qilib (111-bet), bir pora (115-bet), bir ushoq bola (120-bet), besh nut (128-bet), yigirma gaz (144-bet), gaz, qarish (183-bet), toʼrt enlik (186-bet), lak pul birligi (196-bet), qabza tufroq (195-bet), botmon (217- bet), bir yumruq tufroq (248-bet), tanob (296-bet) va hokazolar* uchraydi.

<div align="right">**3-jadval**</div>

Asarda qoʻllangan oʻlchov va pul birliklari				
Ogʻirlik	Uzunlik	Maydon	Pul	Hisob soʻzlar
misqol	gaz	tanob	lak	taqsim
botmon	qarish	botmon	miri	yumruq
qadoq			tanga	pora
put(pud)				toʻrt enlik
qabza				qalam
nut (mud)				choqluq

Asarda qoʻllangan oʻlchov birliklarining mazmuniy mundarijasi, isteʼmol doirasi dissertatsiya ishida tahlilga tortilgan.

<div align="right">**4-jadval**</div>

<div align="center">**"Temurnoma" asaridagi oʻlchov birliklarining isteʼmol doirasi**</div>

T/r	Ogʻirlik oʻlchovi nomi	Tarixiy soʻz	Arxaiklashgan soʻz	Lingvomadaniy belgisi mavjud	Hozirgi vaqtda qoʻllanadi
1	misqol	+			ayrim mamlakatlarda
2	botmon	+		+	ayrim mamlakatlarda
3	qadoq		+	+	
4	put(pud)	+			ayrim mamlakatlarda
5	qabza	+			

<div align="right">**5-jadval**</div>

T/r	Hisob soʻzi nomi	Tarixiy soʻz	Arxaiklashgan soʻz	Lingvomadaniy belgisi mavjud	Hozirgi vaqtda qoʻllanadi
1	taqsim			+	+
2	yumruq	+		+	
3	pora		+	+	+
4	toʻrt enlik				+
5	qalam	+	+	+	+
6	choqluq				+

Shuningdek, dissertatsiyaning mazkur paragrafida etnografik realiyalarning milliy xususiyatlari koʻrsatilgan. Birgina *"toʻy"* leksemasining semantik va lingvomadaniy tasnifidayoq oʻzbek xalqining boy milliy-madaniy merosi aks etishi

isbotlangan. **"Temurnoma"** da Amir Temur saltanatidagi ko'plab to'ylar haqida ma'lumotlar berilgan. Bu to'ylar, asosan, 3 xil ko'rinishda bo'lganligi tasvirlangan.

1-rasm. "To'y" leksemasining semantik tasnifi

Ishda **ommaviy-siyosiy voqeliklar, onomastik-antroponomik realiyalar, assotsiativlarning** milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan. Paragraf so'nggida asarda qo'llangan muqobilsiz leksik birliklarning diagramma shaklidagi tahlili keltirilgan.

2-rasm. Muqobilsiz leksik birliklarning foizlarda ifodalanishi

18

Bobning uchinchi paragrafi *"Asardagi o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari"* deb nomlangan. Mazkur paragrafda asarda qo'llangan o'xshatishlar tahlilga tortilgan.

"Temurnoma"da lingvomadaniy birliklar qatori o'xshatishlar alohida mavqega ega. Asarning lingvistik-uslubiy vositalari sifatidagi o'xshatishlarga boyligi adibning kuzatuvchanligi, so'z qo'llashdagi mahorati, adabiy-badiiy saviyasiga bog'liq. Salohiddin Toshkandiyning o'xshatishlardan unumli va mohirona foydalanishi asar badiiyligi, o'qimishliligini oshirib, ta'sir doirasi kengashini ta'minlaydi.

"Temurnoma"da qo'llangan o'xshatishlarni quyidagi guruhlarga tasnif qilishni lozim topdik:

1. An'anaviy o'xshatishlar: Asarda qo'llangan an'anaviy o'xshatishlarni mavzuviy guruhiga ko'ra 1) o'simlik nomlari asosidagi o'xshatishlar(biomorf kod*)*: *za'faronday, chechakday, sarvdek, sanobardek, xandon, ra'nodek;* 2) osmon jismlari va tabiat hodisalari nomlari asosidagi o'xshatishlar (fazoviy kod): *oyday, yulduzday, Hulkarday, shamolday, tumanday, seldayin, qizil dengizdek, falakdayin;* 3) hayvon va hasharot nomlari asosidagi o'xshatishlar (zoomorf kod): *ayiqday, arslondek, dengiz nahangidek, qulunday, quralaydek, yo'lbarsday, bo'riday, yovvoyi itdek, ilondek, kiyikdayin, chigirtkaday (chovurtkaday) chayondaorutyin, misli qumursqaday;* 4) qush nomlari asosidagi o'xshatishlar (zoomorf kod): *humoyundek, qushday, semurg'dek, shunqorday, bulbulday, quzg'unday, qarg'aday, qaqnusday, ruh to'tisidek;* 5) narsa-buyum nomlari asosidagi o'xshatishlar (predmetli kod): *handalakdek, o'tday, miridek, chaqadayin, kumushdek, durdek, suvday, olmosdek, toshday, yoyday, misli o'q-yoy, tog'day; kabobday, xannot qofidek, tikonday, g'ishtdek, simobdek;* 6) diniy tushunchalar nomlari asosidagi o'xshatishlar (ma'naviy kod): *malakdayin, hur-u g'ilmondek, hurdek, Azroyilday, Yusuf tal'atli, Yusuf iqbolidek, Nuh to'fonidek, misli payg'ambar, mo'min ko'nglidek; tishlari durdek, o'zi bir hurdek qiz erdi* (Temurnoma, 155-bet). 7) afsonaviy nomlar asosidagi o'xshatishlar (mifologik kod): *Rustam sifatli, Jamshid jomidek, ajdarhodek, uch boshli ilondayin, Xizrdek, adam diyoridek, adam cho'listoni* kabi.

2. An'anaviy turg'un o'xshatishlar. Ikki obyekt o'rtasidagi o'xshashlik mazmunini ifodalovchi, til egalari lisoniy xotirasida ma'lum bir qoliplar shaklida saqlanadigan konnotativ turg'un birikmalar turg'un o'xshatishlar sifatida ta'riflangan"[24]. Mazkur o'xshatishlar millatning urf-odat va marosimlari, dunyo-qarashlari, qadriyat va an'analari, bir so'z bilan aytganda, xalq madaniyatini o'zida ifodalaganligi uchun milliylik kasb etadi. Binobarin, turmush sharoitlari, madaniyatda turg'unlashgan me'yorlar tufayli narsa-hodisalarga turlicha etalonlar tanlanadi"[25]. Bu etalonlar birining o'rniga boshqasini qo'llab bo'lmaydigan qat'iy turg'unlashgan bo'ladi. Adib turg'un o'xshatishlar asosidagi tuya, ayiq, bo'ri, kiyik, laklak, semurg', lochin, humo, qaqnus, ajdarho leksemalaridan foydalangani,

[24] Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқча изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 20.
[25] Усмонов Ф. Турғун ўхшатишларнинг айрим хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. – № 4. – Б. 51.

shuningdek, ularning aksariyati mifologik(afsonaviy) ekanligi xalqning o'sha davrda afsonalarga, miflarga, g'aroyib tilsimotlarga ishonganligini ko'rsatadi. Asarda jang maydonida to'kilayotgan qon qizil dengiz toshishiga, go'yo kichik qiyomat bo'layotganligiga o'xshatilayotgan turg'un o'xshatishlarga ko'p o'rinlarda duch kelamiz: *G'avg'o haddin oshib, qizil dengiz toshib har tarafga oqa boshladi, go'yo alar boshida qiyomati sag'ir bo'ldi (Temurnoma, 149-bet).* Mazkur misolda Sohibqiron Amir Temurning To'xtamishxon bilan jang qilganligi tasvirlangan, jangda askarlarning halokatga yuz tutayotganligi, ulardan to'kilayotgan qon qizil dengiz kabi toshganligi, xuddiki, kichik qiyomat sodir bo'layotgan paytga qiyoslanadi.

6-jadval

"Temurnoma" asaridagi inson tana a'zolari o'xshatilgan leksemalar

Inson tana a'zolari nomi	O'xshatish unsuri
Yuz	oydek, quyoshdek, ra'nodek, guldek somondek sarg'aygan, la'l kabi
Tish	durdek, injudek
ko'z	quralay, ko'zlari jodu, cho'lfondek, mash'aldek, ko'zlari charog' kabi
Qosh	qilich kabi tez, hilol, yoydek
Kiprik	xunrez, o'q
Bosh (kalla)	handalak, qora tarbuzdek, qovun-tarbuzdek
tan (jasad) / badan / bo'y	xannot qofidek, nihol, sarvdek, sanubardek, kumushdek, hurdek, chinordek, davang qabaqdek, falak(palak)
Lab	aqiq, xandondek, marjondek
ko'ngil	Simobdek, mo'min ko'nglidek
qo'l / oyoq	bodringdek, tarrakdek

3. Individual o'xshatishlar: "*boshi qora tarbuzdek yumalanub, jasadlari davang qabakdek yorilib, qo'l-oyog'lari tarrakdek tirillab, bodringdek dirillab, a'zolari uzv bo'lub, bo'lak-bo'lak juzv bo'lub, har yerda o'ynab yotur erdi*" kabi (Temurnoma, 161-bet). Asardagi jangning so'nggi, tugash paytida personajlarning holati va harakatini tasvirlashda adib individual o'xshatishlardan foydalangani yaqqol sezilib turadi: *"Bul tarafdin turk, o'zbaklar, ul tarafdin hindu badraklar ul qorasaklar birla andog' urush qildilarkim, ikkala tarafda o'luklar xannot kofidek tub-tub bo'lub qolaverdi. Qazo do'konchilari bu yuklarni adam arobasig'a solaverdi. Tana folizidin kalla handalagi uzulub, jasad falagi cho'zulub qiru soyda yotaverdi. Qonlar jilg'a-jilg'a bo'lub oqaverdi. Ul kunda barchalarini aqli shoshib, qirg'inlari haddin oshib, qizil dengiz toshib, hindu badbaxtlarni boshi qora tarbuzdek yumalanub, jasadlari davang qabakdek yorilib, qo'l-oyog'lari tarrakdek tirillab, bodringdek dirillab, a'zolari uzv bo'lub, bo'lak-bo'lak juzv bo'lub, har yerda o'ynab yotur erdi" (*Temurnoma, 161-bet) Adib asarda jang vaqtini tasvirlagan o'rinlarda yuqoridagi individual o'xshatishlardan ko'p marotaba foydalangan bo'lsa-da, ba'zi o'xshatishlarda farqli tasviriy vositalarga ham duch kelamiz. Biroq aksariyat holatlarda tasvir bir xillikni tashkil etadi:*"Mirzoni askari*

andog' qirildikim, qonlar jilg'a-jilg'a bo'lub oqaverdi, ajal dehqoni jasad falakindin kalla handalakini uzub, falokat aravosig'a ortaverdi. Boshlar soy toshlaridek bo'lub, jasadlar xannot qofidek to'da-to'da to'flanub qolaverdi. Qazo vagonchisi adam relig'a bu yuklarni solaverdi". Bu o'xshatishlar asarning badiiyatini, adibning induvidual o'xshatishlardan unumli foydalanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqotimizda D.Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasida ko'rsatilgan til egasi bilan bog'liq o'xshatishlar[26] tasnifi asosida asardagi o'xshatishlar tahlil qilindi.

2. Bobning to'rtinchi paragrafida *"Temurnoma"da qo'llangan antroponim-larning lingvomadaniy shakllari"* haqidagi fikrlar hamda tahlillar bayon qilingan. "Temurnoma" asaridagi antroponimlarning kelib chiqishi til (fors, arab, o'zbek), nomlash, qurilish jihatidan ancha murakkab va xilma-xildir. Asarni nashrga tayyorlagan P.Ravshanovning so'zlariga ko'ra, "Temurnoma" da 500 dan ortiq shaxslarning ismlari keltirilgan. Ularning aksariyati Sharq mifologiyasi orqali bizga tanish bo'lgan tarixiy shaxslar va sulolalar vakillaridir. Bu asar ko'lami kengligidan dalolat beradi. Asar antroponimlarini quyidagicha semantik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Amir Temurning ajdodlari nomlari: Barkul bahodur, Ilongiz bahodur, Injil, Qorajor Nuyon, Amir Suguchin, Irimchi Zalosxon, Qojuvli Bahodurxon, Tarbonxon.

2. Amir Temur onasining ismlari: Tegina begim, Takina begim, Takina Mohbegim.

3. Amir Temur otasining ismi: Amir Turagay Bahodur.

4. Amir Temur xotinlarining ismlari: Saroymulkxonim (Bibixonim), Turmush og'a, Uljoy Turkon og'a, Dilshod og'a, Tuman og'a, To'kal xonim va boshqalar.

5. Amir Temur o'g'illarining ismlari: Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohruh Mirzo.

6. Amir Temur kelinlarining ismlari: Xonzoda xonim (Sevinch beka), Lalchechak beka (Sog'inch beka).

7. Amir Temur nevaralarining ismlari: Muhammad Sulton, Pir Muhammad Mirzo, Iskandar Mirzo.

Diniy antroponimlar:

1. Payg'ambarlarning ismlari: Odam, Nuh, Idris, Ibrohim, Sulaymon, Muso va boshqalar.

2. Xalifalarning ismi: Abu Bakr Siddiq, Usmon, Murtazo Ali va boshqalar.

Tarixiy shaxslarning nomi:

1. Hukmdorlarning ismlari: Iskandar, Jamshid, Afrosiyob, Rustam ibn Zol, Kaykovus, Dorod, Chingizxon, Yildirim Boyazid, To'xtamishxon va boshqalar.

2. Amirlarning ismlari: Baroqxon, Amir Choku, Muso Jaloyir, Bayon Sulduz, Yodgorshoh.

3. Ma'naviyat bag'ishlovchilarining ismlari: Sayfiddin Shayx ul Alam, Xo'ja Bahovuddin, Sadr ash-Shariat, Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Hasan, Shayx Xudoyberdi va boshqalar.

---

[26] Худойберганова Д. Матннинг антопоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 95.

Shuningdek, tadqiqot ishida mazkur antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari yoritilgan. Masalan, oʻrta asrlarda urugʻ nomlari shaxslarga ism sifatida qoʻllanganligi *(Saroymulkxonim, Muso Jaloyir, Amir shoh barlos)*, tugʻilgan hudud ismga qoʻsimcha vosita sifatida uchrashi *(Gʻulom Jurjoniy, Allamoi Taftazoniy, Hofiz Sheroziy, Sharof Yazdiy)*, ayrim hollarda ayol va erkaklarga qoʻyilgan ismlar farqlanmasligi *(Dilshod, Kamol 84-bet)*, mazkur holat laqablar, unvonlarda ham mavjudligi *(ogʻo, oʻljoy, bahodir)*, ismlarda din (islom dini)ning aks etishi *(shayx, ota, sadr ash-shariat kabi qoʻshimchalar bilan qoʻllanilishi, shuningdek, Qurʼoni karimdagi ismlar davrning asosiy ismlar manbasi ekanligi)* kabilar shular jumlasidandir.

Ishning **"Temurnoma" asarining genderolingvistik xususiyatlari"** deb nomlangan uchinchi bobining birinchi paragrafida *"Lingvokulturologiyada "gender" masalasi"* yoritilib, jahon tilshunosligida soʻnggi yillarda genderolingvistika sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar borasida soʻz boradi. T.L.Bataron "XXI asrda genderning tashqi jozibadorligini ommaviy axborot vositalarida ogʻzakilashtirishning oʻziga xos xususiyatlari (rus va ingliz tillari materiallari asosida)" nomzodlik dissertatsiyasida lingvistikada gender nazariyasi, lingvokonseptologiya, lingvokulturologiya, diskursiv va media tilshunoslik xususida ilmiy-nazariy qarashlarni ingliz va rus tili materiallari asosida tadqiq qilgan.[27] Tadqiqotda goʻzallik konsepti, ayol va erkaklar nutqida "jozibadorlik", emotsiya, motivlarning ingliz va rus media diskursiv lingvistikadagi talqini yoritilgan. Shuningdek, S.A.Zikova "Dunyoning lingvistik manzarasida "erkaklik" konseptining oʻziga xos xususiyatlari (rus va ispan tillari misolida)" nomzodlik ishida "Konsepsiya" tushunchasiga taʼrif berilib, uning asosiy qoidalarini tavsiflangan. Gender tushunchasining lingvistik xususiyatlari izohlangan. "Erkaklik" tushunchasining ahamiyati, semantik maydonlari tadqiq etilib, rus va ispan tillaridagi assotsiativ aloqalari aniqlangan.[28] Mazkur dissertatsiyada ikki xalqning tilida mavjud "maskulinlik" genderga oid yirik atama sifatidagi maqomi ham genderlingvistik, ham lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortilgani bilan ahamiyatli. Rus tilshunoslaridan A.V.Kirilina "Til va muloqotning gender aspektlari"[29] nomli doktorlik dissertatsiyasida gender tushunchasining ontologiyasi, genderning jamiyat bilan bogʻliqligi, jinsning rituallizatsiyasi, Fuko konsepsiyasi, genderning psixoanalitik xususiyatlari, genderning lingvistik xususiyatlari, til tarixida jins va muloqot munosabatlari, biologik determinizm, feministik lingvistika, maskulinlik tushunchasi, erkaklik va ayollik madaniyat tushunchasi sifatida, gender sterotiplari, "ayollik"va "erkaklik", "er" va "xotin"lik, "ota" va "ona"lik gender sterotiplarining til va muloqotda koʻrinishi xususida, shuningdek, "rus erkagi" va "rus ayoli" konseptlarining etno va lingvogenderologik miqyosda tadqiq qilgan. Ishda nemis, qozoq va rus madaniyati, genderologiyasi asosiy obyekt qilib tanlanib,

---

[27] Батарон Татьяна Леонидовна. Специфика медиавербализации экстернальной привлекательности гендера в XXI веке (на материале русского и английского языков) автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. −Майкоп, 2021. – С. 21.

[28] Зыкова С. А. Специфика реализации концепта "мужественность" в языковой картине мира: на материале русского и испанского языков. Автореф. дис. доктор филологических наук. – Москва, 2003. – С. 32.

[29] Кирилина А.В. Гендерные аспекты языка и коммуникации. Автореф. дис. доктор филологических наук. – М., 2000. – С.50.

qiyosiy aspektda tahlil qilingan. K.Ismagulovaning "Gender munosabatlarining lingvomadaniy xususiyatlarining qiyosiy aspekti (Rus, nemis, qozoq tillari materiallari asosida)"[30] nomli nomzodlik dissertatsiyasida ham A.V.Kirilinaning doktorlik dissertatsiyasida solishtirilgan rus, nemis, qozoq tillarida gender munosabatlari xususida so'z boradi. Ahamiyatli jihati shundaki, ishda rus, qozoq, nemis yozuvchilarining asarlaridagi gender munosabatlardan foydalanilgan. Izlanishlar natijasida jahon tilshunosligida gender tadqiqotlari so'nggi o'n yillikda tillarning qiyosida olib borilayotganligi, genderlingvistikaning maqomi tobora o'rganilishi muhim bo'lgan sinxron yo'nalishlardan ekanligini tasdiqlamoqda.

Gender munosabatlari jamiyatda uzoq o'tmish an'ana va qadriyatlari bilan sug'orilib, chuqur ruhiy ong asosida shakllanadi, tartibga solinadi. Mazkur g'oyalar eng barqaror bo'lib, avloddan avlodga o'tadi. Barcha xalqlarda ayol va erkaklik turg'un gender sterotiplari mavjud.

7-jadval

<div align="center">Turg'un gender sterotiplari</div>

Erkak (erkakka xos)	Ayol (ayolga xos)
aqlli	go'zal
kuchli	mehribon (ona,singil)
jasur	uy bekasi
qo'rqmas	itoatkor xotin (islom madaniyati)

Tadqiqot ishimizda turg'un gender sterotiplari asosida Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida erkaklik (maskulinlik) va ayollik (femininlik) sterotiplarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Tashqi ko'rinishi: kuchlilik, bahodirlik, mardlik, shijoat, qo'rmaslik, aql bilan ish ko'rish: *Amir Choku aydi: "Ey barzangi, qay yurtdinsan?" (Temurnoma 49-bet). Oblo bahodir, cheriklaring munga qochti. (Temurnoma 103-bet).* Mazkur o'rinda bahodir so'zi undalma sifatida ajratilgani uchun gender murojaat shakllarini namoyon qilmoqda. Misoldan ko'rinib turibdiki, barzangi, bahodir kabi murojaat shakli erkakka (qora tanlilik, kuchli, baquvvat, shuningdek, jangari shaxs) nisbatan qo'llanmoqda.

2. Muomala munosabatlari: Erkaklar nutqida "birodar", "bahodir", "xonim" kabi undalmalar uchrasa, ayollar nutqida "xonimi bekam", "xonzodam", shuningdek, turmush o'rtog'iga qarata "amirim" kabi murojaat shakllari mavjud. Asardagi ayollarning aksariyati malikalar bo'lganligi bois ularning nutqlari badiiy, jozibali, ifoda shakli ravon tasvirlangan. Asarda genderga xos bo'lgan xususiyatlardan insonning unvoni, yoshi va ijtimoiy kelib chiqishi personajlar ismlarida o'z aksini topadi. Masalan, *Alqissa, Tarag'ay Bahodir nokli Qorayur nuyondin edi. (Temurnoma 43-bet) Qozonxon andog' zolim erdiki, kishini talab qilsa, avval xotin va bolalariga vasiyat qilib, keyin Qozonxonni oldiga borur erdi. Amir Choku barlosda davlatmand edi. (Temurnomadan) Ammo Malikshoh bahodir ko'p g'ani boy kishi erdi. Har ijnos mollari bor erdi.* Yuqoridagi misollardan

---

[30] Исмагулова Г. К. Лингвокультурологический аспект гендерных отношений: сопоставительный аспект: На материале русского, немецкого и казахского языков. Автореф. кандидат филологических наук. –К., 2005. – С. 44.

ma'lum bo'ldiki, Tarag'ay "bahodir" (harbiy sarkardalarga beriladigan unvon), Qozonxon "xon" leksemasi uning xon unvoniga egaligi va boshqa ko'plab uslubiy ma'no qirralari mavjud ekanligini dalillaydi. *O'ljoy Turkon og'o amir qarorgohiga yuzlandi.* (Temurnoma 52-bet). Mazkur o'rinda qo'llangan og'o leksemasi davr nuqtayi nazaridan ayollarga nisbatan qo'llangan. Hozirda esa Xorazm shevasida og'o, og'a aka ma'nosida iste'molda mavjud. M.Koshg'ariy-ning "Devon-u lug'otit turk" asarida og'o so'zi katta, ulug' deb izohlangan. Demak, og'o ham davr uchun turg'un gender sterotipidir.

3. Xarakterli xususiyatlar: Ayol kishi tabiatan nozik yaratilganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va bo'yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so'zlarni, ayniqsa, ijobiylik semasiga ega bo'lgan leksemalarni ko'p qo'llaydi. Odatda, suhbat predmeti bir oz bo'rttirilgan holda ko'rsatiladi. So'zlashuv jarayonida ayollarda emotsionallik kuchliroq bo'ladi: hayratlanish, o'tinish" (yalinish), sevinish, xafa bo'lish, qo'rqish kabi ruhiy fiziologik holatlar yorqinroq aks etadi. *Tegina begim moh ko'b zori qilib aydi: "Ey bobo, mani o'ldurmoqni qanday xohlayursan, manda gunoh bo'lsa, qornimdagi bolaning nima gunohi bor?" (Temurnoma 48-bet).* Yuqoridagi misolda ham ruhiy fiziologik holat yaqqol namoyon bo'lmoqda. Nutqning ayolga xosligi misoldan ayon bo'ladi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida *"Temurnoma"da uchrovchi pretsedent nomlarning genderolingvistik tahlili"* amalga oshirilgan. Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida ham pretsedent nomlar talaygina. Tilshunos olimlarning fikricha, pretsedentlik manbayi va maqomiga xizmat qiluvchi quyidagi nomlar guruhini tadqiq qilish maqsadga muvofiq: antroponimlar, toponimlar, biblionimlar, gidronimlar, teonimlar, xrematonimlar, zoonimlar, mifonimlar, ertak qahramonlari nomlari, muqaddas kitoblarda keltirilgan ismlar, tashkilot va muassasa obyektlarining nomlari va boshqa nomlar[31]. Mazkur onimlar orasidan "Temurnoma" da quyidagi turlar pretsedent nom sifatida faol qo'llanadi: *Antroponimlar (*kishi ismlari)－"Temurnoma"da 500 dan ortiq shaxs nomlari qo'llangan. Ulardan 100 dan ortig'ini pretsedent antroponimik nom sifatida ko'rsatish mumkin. Amir Temur, Bahouddin Naqshbandiy, Iskandar Zulqarnayn, Rustam, Afrosiyob va teonimlar (xudo, ma'bud va payg'ambarlar nomlari) kabi. Asar diniy voqea va afsonalarga boy. Asarning o'qimishliligini oshirish, ta'sir maydonini kengaytirish maqsadida Salohiddin Toshkandiy payg'ambarlar, tabarruk zotlar, avliyolar nomlariga, ular bilan bog'liq voqeani yodga solishga harakat qilgan. Asarda hazrati Odam alayhissalom, Muso, Iso, Yaqub, Yusuf, Ayub alayhissalomlar va boshqalar pretsedent maqomida qo'llangan. *Toponimlar* (joy nomlari): asarda uning sujetidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mashhur joy nomlari ham salmoqli o'rin egallagan. *Biblionimlar* (kitob va matn sarlavhalari): Tavrot, Zabur, Injil, shuningdek muqaddas Qur'oni Karim kitoblari asarda biblionomik pretsedent nom sifatida qatnashganligi dissertatsiyada misollar bilan dalillangan. Shuningdek, ishda leksik, morfologik pretsedent birliklarning lingvomadaniy va gender xususiyatlari sistematik tahlil qilingan.

---

[31]Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации: теория и методика когнитивно-дискурсивного исследования: монография. – Е.: ГОУ ВПО «Урал. гос. пед. ун-т», 2011. – С. 85-99.

Dissertatsiyaning uchinchi bob uchinchi paragrafi *"Asarda nutqiy muomala va nutqiy etiketning gender munosabatlari"* tahliliga bag'ishlangan.

Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida personajlar nutqi, muloqotga kirishish jarayonlari, shaxslararo kommunikativ muloqot shakllari alohida ahamiyatga ega. Asarda nutqiy etiketning individual, o'ziga xos ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Tadqiqot ishimizda ularni quyidagicha tasnifladik:

1) oddiy nutqiy muloqot etiketi;

2) jangari bahodirlar o'rtasidagi nutqiy muloqot etiketi;

3) hukmdor doira atrofidagi nutqiy muloqot etiketi;

4) hukmdor va oddiy xalq nutqiy muloqot etiketi;

5) ayol personajlar nutqiy muloqot etiketi;

6) qalandar, avliyo, afsonaviy shaxslarning nutqiy muloqot etiketi kabi.

Semantik tasniflangan har bir nutqiy vaziyat shakli o'ziga xos gender xususiyatlarini aks ettiradi. Asardagi ayollarning aksariyati malikalar bo'lganligi bois ularning nutqlari badiiy, jozibali, ifoda shakli ravon tasvirlangan. Asarda genderga xos bo'lgan xususiyatlardan insonning unvoni, yoshi va ijtimoiy kelib chiqishi personajlar ismlarida o'z aksini topadi.Asarda ayol nutqiy etiketi suhbat jarayonida ham jozibador va bo'yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so'zlarni, ayniqsa, ijobiylik semasiga ega bo'lgan leksemalarni ko'p qo'llashi bilan erkaklar nutqidan farqlangani yaqqol sezilib turadi.

XULOSA

1. "Temurnoma"da xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy holati, madaniyati, ma'naviyati, shuningdek, ko'plab rasm-rusum, urf-odatlari, milliy qadriyatlari namoyon bo'lgan. Asarda o'zbek xalqining milliy madaniyati aks etgan. "Temurnoma" kabi tarixiy asarlarning tilini lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish O'zbekiston tarixi, o'zbek madaniyati, qolaversa, o'zbek tilining naqadar boyligini ko'rsatishda, ona tilimizning milliyligi va o'ziga xosligini yoritishda, o'zbekona qadriyatlarimizni kelajak avlodlarga yetkazishda, ularni kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishlarida muhim ko'prik vazifasini o'taydi.

2. Jahon tilshunosligida olib borilayotgan lingvomadaniy tadqiqotlarda tarixiy, tarixiy-badiiy asarlarda milliy urf-odatlar, an'ana-qadriyatlar, diniy-ma'naviy qarashlar, ma'lum xalqning turmush tarzi, milliy sterotiplarning barcha turkumlari obyekt sifatida tahlil qilingan ishlar juda kam. Shuning uchun, "Temurnoma" kabi millatning tarixi, milliyligi, madaniy-ma'naviy hayotini ochib beradigan asarlarning antroposentrik izlanishlarning bosh mavzularidan biri bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Tarixiy va milliy ko'rsatkichlarni yoritishda lingvomadaniy birliklar keng qo'llaniladi. Asarda ko'plab realiyalar jamlangan bo'lib, mazkur birliklar turkiy xalqlardagina kuzatiladi. Ularning etnografik jihatlari O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasida mushtaraklik kasb etsa-da, realiyalardan ayrimlarining nomlanishi muayyan individuallikka ega.

4. "Temurnoma" asarida o'xshatishlarning turli ko'rinishlari qo'llangan, ular millatning borliqni idrok qilishi bilan bog'liq obrazli tafakkur tarzini ko'rsatuvchi

lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Asar matnidagi o'xshatishlar tahlilidan shu ma'lum bo'ldiki, o'xshatishlar, xoh an'anaviy, xoh individual bo'lsin, xalqning turmush-tarzi, orzu-umidlari, ishonch-e'tiqodlari, diniy e'tiqodi bilan bog'liq ravishda o'ziga xos doiraga ega bo'ladi. Mazkur lingvistik doira boshqa madaniyatlar bilan bo'lgan farqlarni yuzaga keltiradi.

5. Tahlillarimizda frazeologik birliklarning semantik tadqiqi va tasnifida lingvomadaniy uzv masalasiga alohida e'tibor bilan yondashildi. Frazeologizmlar semantikasi o'zida madaniy ma'lumotlarni mujassam etib, lingvokulturema miqyosiga ko'tariladi. Frazeologik birliklar tilning lingvomadaniy fondining asosiy boyliklaridan hisoblanadi.

6. "Temurnoma" asarida frazeologik birliklar muayyan bir qahramon shaxsiyatini ochib beruvchi vosita sifatida emas, balki jamiyat, jamiyatning ma'lum guruh vakillari faoliyatini ifodalash uchun qo'llanilganligini ko'rish mumkin.

7. Maqol va matallar o'zida milliy, madaniy ma'lumotlarni mujassam etib, lingvokulturema sifatida baholanadi. Mazkur birliklar ham frazeologizmlar kabi tilning lingvomadaniy fondining asosiy boyliklaridan hisoblanadi. Asarda matn talabi bilan ularning ham shakli o'zgartirilib, mazmuni berilishi kuzatiladi. Natijada maqollarning hudud hamda ijrochi bilan bog'liq variantlari yuzaga keladi. Asarda qo'llangan maqol va matallarning lingvomadaniy tahlili natijasida xalqimizning milliy-etnik, ijtimoiy-ruhiy qiyofasi o'zbek xalqining qadriyatlariga to'la mos ravishda aks etadi.

8. Asarda rasmiy va norasmiy murojaat shakllari bilan bog'liq nutqiy birliklar xalqimizning qadimdan shakllangan nutqiy etiketining ko'rinishlari, ularning genderolingvistik xususiyatga ega ekanligini turli lisoniy ifodalar bilan qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz.

9. "Temurnoma" matnida qo'llangan shaxs nomlari tarixiy voqelik va shart-sharoit, shuningdek, milliy an'analarni o'zida aks ettiruvchi noyob manbalar jumlasiga kiradi. Shaxs nomlari paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda vazifaviy xususiyatlariga ko'ra o'z etnohududiy tarixi va dunyaqarashiga ega bo'lgan xalqning taqdiri, til taraqqiyoti va turmush tarzi, xususan, milliy madaniyati bilan chambarchas bog'liq.

10. "Temurnoma"da qo'llangan pretsedent birliklarning ko'pchiligi tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, shuningdek diniy e'tiqodda mavjud onomastik pretsedent nomlarni qamrab olganligi, davrlar mobaynida shakllangan islom madaniyati, xalqimiz tarixini aks ettirgani bilan ko'plab tadqiqotlarga muhim manbaa vazifasini bajaradi.

11. "Temurnoma" asari matnida faol qo'llangan mifonimlar, etnonimlar, takrorlar, sintaktik figuralar, o'xshatishlar, evfemizmlar, pretsedent birliklar, etalonlar, gender sterotiplari, nutqiy etiketlar alohida tadqiqot obyekti sifatida monografik tarzda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

ASKAROVA MANZURA BAKHTIYOR KIZI

LINGVOCULTUROLOGICAL STUDY OF THE WORK "TEMURNOMA" BY SALAHIDDIN TASHKANDI

10.00.01 – Uzbek language

ABSTRACT
of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

Namangan – 2024

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation has been registered under the number №B2022.4.PhD/Fil2809 at the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation was completed at Namangan State University.

The abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume) on the website of the Scientific Council (www.namdu.uz) and on the "ZiyoNet" information-educational portal (www.ziyonet.uz) placed.

Scientific supervisor:	**Abduraxmanov Shavkatjon Ashurovich,** Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Official opponents:	**Iskandarova Sharifa Madaliyevna** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Madrahimov Ilhomjon Sobirovich Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Leading organization:	**Andijan State University**

The defense of the dissertation will take place on "_____" _____ 2024 at _____ at a meeting of the Scientific Council PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 awarding scientific degrees at Namangan State University (Address: 161, Baburshah street, Namangan city, 160119. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Fax: 228-85-02. Web-site: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, fax: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

The dissertation has been registreded at the Information Resource centre of Namangan State University with the number _____. (Address: 160107, Namangan, Boburshah street 161, Tel.: (+99869) 228-85-01).

The abstract of the dissertation was distributed on "_____" _____ 2024.
(Register protocol numbered _____ in "_____" _____ 2024).

Z.Y.Sodikov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

I.U.Darvishov
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy on Philological Sciences, Associate Professor

F.I.Karimova
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

INTRODUCTION (To the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Actuality and relevance of the theme of the dissertation. Since the last quarter of the 20th century, in world linguistics, based on neolinguistic teachings, serious attention has been paid to studying language from an anthropocentric point of view in relation to a person's speech activity, social status, mentality, upbringing, and gender, and to studying the functional possibilities of language observed in the process of human speech activity. As a result of the anthropocentric approach to language, the inextricable connection of language with the personal factor, and at the same time the assessment of the human linguistic world as a central understanding, has accelerated the development of anthropocentric linguistics, becoming one of the main objects of study of the paradigm, reflecting its linguistic landscape, national-spiritual identity, cumulation, and appellative functions in close connection with the expression of its linguocultural characteristics. is gaining momentum.

In today's world linguistics, the study of the language of each nation in conjunction with its culture is increasing the importance of work aimed at scientifically identifying the history of nations and peoples, their cultural heritage, their differences and common aspects, developing cooperation trends, expanding the linguistic landscape of the world in the consciousness of the individual, and expanding the linguistic-cognitive worldview. Extensive work is being done on the fact that language is a tool of communication, an integral part of a particular people and ethnicity, and that it embodies national and cultural values, along with transmitting information and knowledge from generation to generation.

In modern Uzbek linguistics, a number of works devoted to the anthropocentric study of language have been developed, and in this regard, in particular, studies are being conducted on the linguistic and cultural analysis of artistic, historical, and historical-artistic works that reflect the national culture of our people. This is to "fundamentally increase the prestige of the Uzbek language in the social environment of our people and at the international level[1], to educate our growing children in the spirit of patriotism, loyalty to national traditions and values, to ensure the full introduction of the state language in our country, to preserve the many invaluable works of our great scholars and thinkers, the great poets, and the great poets at the present stage of the development of New Uzbekistan."[2] This research work is also relevant as one of the scientific and practical works on the implementation of such important tasks as "accelerating work on preserving, studying and safely transferring resources to future generations".

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 5, 2018 No. PQ-3775 "On additional measures to improve the quality of education in higher

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtrish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084 Farmoni. Manbaa: https://lex.uz/docs/-5058351(Murojaat etilgan sana: 09.09.2022).

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 10.02.2022 yildagi PQ-126-son qarori. Manbaa: https://lex.uz/uz/docs/-5854226 (Murojaat etilgan sana: 09.09.2022).

education institutions and ensure their active participation in the wide-ranging reforms being implemented in the country", Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 No. PF-5850 "On the prestige and status of the Uzbek language as the state language on measures to radically improve the language, PF-6084 dated October 20, 2020 "On measures to further develop the Uzbek language and improve language policy in our country", PF-307 dated July 6, 2022 "On organizational measures to implement the Innovation Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026 This research work will contribute to the implementation of the tasks set forth in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. 126 dated February 10, 2022 "On Additional Measures to Improve the System of Preservation and Research of Ancient Sources," as well as other regulatory and legal documents related to this activity.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. This research work was carried out in accordance with the priority direction of the republican scientific and technological development I. "Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state".[3]

The level of study of the research problem. To date, the number of works on linguocultural research published in the world's leading scientific centers and universities in world linguistics exceeds 4,457 thousand of these, 1514 were devoted to the linguo-cultural study of specific works. Initially, the theoretical foundations of linguo-cultural studies were reflected in the views of Western linguists. Among them, Wilhelm von Humboldt, F.Boas, E.Sepir, B.Whorf, later Russian scientists F.I.Buslauev, A.N.Afanasuev, A.A.Potebnua, V.N.Teliua, Y.S.Stepanov, V.A.Maslova, Linguists such as M.L.Kovshova, V.V.Krasnykh, I.V.Zikova, D.B.Gudkov, I.V.Zakharenko, S.V.Kabakova[4] contributed to the development of this field to a certain extent. In our country, there is also growing interest in linguocultural research, as part of the field of anthropocentric linguistics[5]. In Uzbek

---

[3] https://www.dissercat.com (2023-yil dekabr ma'lumoti)

[4] Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию: Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1984. – 39 с;
Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – 288 с.; Воробьёв В.В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М.: РУДН, 2008. – С. 36.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. 4-е изд. – Москва: Академия, 2010. 208 с. – С. 9.; Иванова С.В.Лингвокультурологический аспект исследования языковых еддиниц. автореф. дис. доктор филологических наук. – Уфа,2003. – С.364

[5] Шарипова А. А.Стилистик синонимлар таржимасининг лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари материаллари асосида) филология фан. фалсафа докт. диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.; Бахронова Д. Антропозооморфизмларнинг семантик ва лингвокультурологик хусусиятлари (ўзбек ва испан тиллари материалида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.; Тухтаходжаева Н. Бадиий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 42 б.; Насиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 96 б.; Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг когнитив, лингвомаданий, коммуникатив, прагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Қарши, 2019.; Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.; Йўлдошев У. Р.Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари филология фанлари докторлик диссер.автореф.– Тошкент, 2017.–50б.; Рахматуллаева З. Ҳаракат тарзи шаклларининг лингвокультурологик ва социопрагматик хусусияти (ўзбек тили материали асосида) филология фан. фалсафа доктори диссер.автореф. –Қарши, 2018.;

